

---

## BILASIZMI...



### **Bilasizmi...**

Vazirlar Mahkamasining 145-sonli “Xotin-qizlar muammolarini o’rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qaroriga muvofiq “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlariga davolash, dori vositalarini olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag’ zarur bo’lgan holatlarda, tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi va sektor rahbari xulosalari bilan tibbiy muolaja xarajatlari to’lab beriladi.

Bunda dori-darmon olib berish uchun BHMning 20 baravarigacha (6 mln so’mgacha) hamda murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun BHMning 100 baravarigacha (30 mln so’mgacha) miqdordagi xarajatlar “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan to’lab beriladi.

### **So’x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-13 17:32:49